| Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning afzalliklari va muammolari .....   | 730 |
| <b>Axmedova Dilbar Buronovna</b>                                                                               |     |
| Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati..... | 734 |
| <b>Ishmanova Diana Nurmamadovna</b>                                                                            |     |
| Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari .....                   | 737 |
| <b>Muxtorova Madina Azamat qizi</b>                                                                            |     |
| Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar.....                                       | 741 |
| <b>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</b>                                                                     |     |
| Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari .....                                            | 746 |
| <b>Yodgorova Xalima To'liqinovna</b>                                                                           |     |
| Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....                                      | 752 |
| <b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</b>                                     |     |
| Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....                     | 763 |
| <b>Djumabayeva Shaira Xalillayevna</b>                                                                         |     |
| Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....                                             | 769 |
| <b>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</b>                                               |     |
| Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni .....                                       | 778 |
| <b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>                                                                            |     |
| Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....  | 784 |
| <b>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</b>                                         |     |
| Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri.....                          | 790 |
| <b>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</b>                             |     |



# MARKAZIY OSIYODA ENERGETIKA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING KELGUSI ISTIQBOLI VA IMKONIYATLARI



**Saidov Mash'al Samadovich**

I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti professori

**Umarova Irodaxon Nuraliyevna**

Toshkent arxitektura-qurilish  
universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Markaziy Osiyo hududida elektr energiyaga bo'lgan talab oshib borayotgan talabni qondirish uchun elektr energiyani ishlab chiqarish quvvatini oshirib borish, sohada mavjud bo'lgan "Tabiiy yo'qotilish" miqdorini (elektr energiyani ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologiyalarni yangi zamonaviy texnologiyalarga o'zgartirish, magistral liniyalar va hududiy tarmoqlarda foydalanib kelingan elektr uzatuvchi kabellarni va transformatorlarni yangilash orqali) kamaytirish, sohada qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib energiya ishlab chiqarishni ko'paytirish, elektr energetika sohasida raqobat muhitini rivojlantirish, elektr energetika tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish, elektr energiya uchun oldindan to'lovni amalga oshirish bo'yicha rag'batlantirish mexanizmlari joriy etish, sohada kapital qo'yilmalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishda samarali innovatsion g'oyalarga asoslangan dasturlar bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** elektr energetika, elektr energiyasini ishlab chiqarish, tabiiy monopoliya, raqobat muhiti, energiya resurslari, energiya obyektlari, issiqlik elektr stansiyasi, issiqlik elektr markazlari, muqobil energiya manbalari, gidroelektrstansiyasi, Atom elektr stansiyasi, quyosh elektr stansiyasi, shamol elektr stansiyasi.

**Abstract:** In order to meet the growing demand for electricity in Central Asia, increasing the power generation capacity, reducing the amount of "Natural loss" in the field (changing the technologies used in the production of electricity to new modern technologies, main lines and by renewing electric transmission cables and transformers used in regional networks), increasing energy production using renewable energy sources in the sector, developing a competitive environment in the electric power sector, developing long-term strategies for the development of the electric power network, Proposals and recommendations are given on the introduction of incentive mechanisms for the implementation of advance payment for electricity, improvement of the system of attracting capital investments in the sector, and programs based on effective innovative ideas in customer service.

**Key words:** electric power, electricity generation, natural monopoly, competitive environment, energy resources, energy objects, thermal power plant, thermal power centers, alternative energy sources, hydroelectric power plant, Nuclear power plant, solar power plant, wind power plant.



**Аннотация:** В целях удовлетворения растущего спроса на электроэнергию в Центральной Азии, увеличения мощностей по производству электроэнергии, снижения количества “Естественных потерь” на местах (замена технологий, используемых при производстве электроэнергии, на новые современные технологии, магистральные линии и за счет обновления кабели электропередачи и трансформаторы, используемые в региональных сетях), увеличение производства энергии с использованием возобновляемых источников энергии в отрасли, развитие конкурентной среды в электроэнергетике, разработка долгосрочных стратегий развития электроэнергетической сети, Предложения и рекомендации данных о внедрении механизмов стимулирования внедрения аванса за электроэнергию, совершенствовании системы привлечения капитальных вложений в отрасль и программ, основанных на эффективных инновационных идеях в сфере обслуживания потребителей.

**Ключевые слова:** электроэнергетика, производство электроэнергии, естественная монополия, конкурентная среда, энергетические ресурсы, объекты энергетики, ТЭС, ТЭЦ, альтернативные источники энергии, ГЭС, Атомная электростанция, солнечная электростанция, ветроэлектростанция.

## KIRISH

Bugungi kunda sayyoramizda aholi sonining o'sib borishi elektr energiyaga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'lmoqda. Mintaqada energetika infratuzilmalarini rivojlantirish sur'atlari sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari, shuningdek, demografik o'sishdan orqada qolmoqda. Bugungi kunda bu mintaqa mamlakatlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday sharoitda tarmoq vazirliklari va milliy kompaniyalarining geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli konlarni o'zlashtirish, energiya resurslarini saqlash va yetkazib berish bo'yicha mavjud infratuzilmalarni kengaytirish va zamonaviy infratuzilmalarni yaratish sohasidagi hamkorligini yanada kuchaytirish zarurligi taklif etildi. Shu bilan birga, energiya manbalarini diversifikatsiya qilmasdan, muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni jalb etmasdan va “yashil” vodorodni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymasdan turib, mintaqani barqaror rivojlantirish mumkin emas.

Mintaqa mamlakatlarida aholi sonining o'sishi, aholi turmush tarzining yaxshilanishi hisobiga, iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlarning ko'payishi natijasida elektr energiyaga bo'lgan talab ham parallel ravishda oshib boryapti. Ammo elektr energiyaga bo'lgan talab oshib borgan sari, elektr energiyani ishlab chiqarish sohasidagi muammolar ham shunchalik oshib boradi. Chunki qo'shimcha miqdorda elektr energiyani ishlab chiqarish energiya resurslariga bo'lgan talabni ham oshiradi, yildan-yilda energiya resurslarining yetishmovchiligi vujudga keladi. Bu esa, elektr energiya narx (tarif) larining oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida raqobatbardosh mintaqaviy elektr quvvati bozorini shakllantirish, albatta, birinchidan, mamlakat ichki ehtiyojlarini qondirish, ikkinchidan, Markaziy Osiyo hududida joylashgan mamlakatlarning elektr energiyaga bo'lgan talabini samarali qondirish imkoniyatini yaratadi. Demak, O'zbekiston hududida mintaqaviy elektr bozorini yaratishning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Buning bir necha sababi bor. Eng avvalo, elektr energiyani ishlab chiqarish va magistral liniyalari orqali uzatish borasida tajribaning mavjudligi, ikkinchidan, Markaziy Osiyo hududida joylashgan mamlakatlar ichida, aynan, O'zbekistonning geografik joylashuv jihatdan qulayligi, ularning barchasi bilan chegaradoshligi, uchinchidan, issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlarining hududlar bo'yicha qulay joylashganligi, to'rtinchidan, O'zbekistonda aholi sonining qo'shni mamlakatlarga nisbatan ancha ko'pligi va zich joylashganligi, beshinchidan, O'zbekistonda elektr energiya narxining qolgan mamlakatlarga nisbatan arzonligi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda elektr energetika tarmog'ida zamonaviy ilg'or mamlakatlar tajribasidan foydalanilgan holda yangi energiya siyosati olib borish muhim. Elektr energiyani ishlab chiqarish sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, respublikamiz hududida mintaqaviy elektr quvvati bozorini shakllantirish, elektr energiya tarmog'ida bozor tamoyillariga asoslangan narx (tarif)larni belgilash, sohaning ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali, sohaning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish sohada jiddiy o'zgarishlarga olib keladi.

Energetika sohasini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan oxirgi yillarda bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yil 1-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” <sup>[1]</sup>gi, 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” <sup>[2]</sup>gi farmonlar, 2019-yil 27-martdagi “O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida” <sup>[3]</sup>gi qaror qabul qilindi. Mazkur farmon va qarorlar energetika tarmog'ida raqobat muhitini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish, elektr energiyani ishlab chiqarish, magistral liniyalari orqali uzatish va hududiy elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish sohasidagi faoliyatning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Boz ustiga, bozorda ayrim korxona va tashkilotlar uchun asossiz yengilliklar va qo'shimcha imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechishga, tabiiy monopoliya sohalari bo'yicha tarkibiy-tuzilmaviy o'zgartirishlar kiritish orqali ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xususiylashtirish



jarayonlarini tezlashtirish, davlat tashkilotlari tomonidan korxona va tashkilotlar faoliyatini asossiz tekshirish amaliyotidan va bozorda raqobatni cheklashga doir huquqiy me'yorlardan voz kechish masalalari ham alohida e'tibor qaratilyapti.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Aholi va tadbirkorlik subyektlarini elektr quvvati bilan ta'minlashda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun esa elektr energiyani ishlab chiqarish tarmog'ida foydalanib turilgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich zamonaviy texnologiyalarga almashtirish ishlarini jadallashtirish, issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlaridagi boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv faoliyatini kam xarajatlilik tamoyillariga moslashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, issiqlik elektr stansiyalari (IES) va issiqlik elektr markazlari (IEM)dagi eskirgan uskunalarni ro'yxatga olib, yangi turdagi zamonaviy vositalar bilan ta'minlash, IES va IEM tomonidan atrof-muhit ekologiyasiga ta'sir etishni kamaytirish chora-tadbirlari ham ishlab chiqilayotganligi e'tiborga molik. Bu mamlakatimizning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash borasida olgan xalqaro majburiyatlariga amal qilishini ham ta'minlaydi.

Elektr va issiqlik elektr stansiyalari har xil turdagi organik yoqilg'i, atom energiyasi va qayta tiklanadigan energiya manbalarida ishlaydi. Energiya ta'minoti muammosini hal qilishning ko'p o'zgaruvchanligi elektr stansiyalarining almashinuviga asoslanadi. "Elektr ishlab chiqaruvchi stansiyalarning o'zaro almashinuvchanligi mintaqaviy energiya tizimlarini rivojlantirishning turli ssenariylarini ishlab chiqish va baholash va ularning har biri uchun energiya ta'minotining ishonchiligi, ekologik tozaligi va samaradorlik mezonlari asosida energiya quvvatlarining maqbul tuzilishini shakllantirish imkonini beradi" [4].

Iqtisodiyotning elektr energetika tarmog'i qolgan barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishi uchun asosiy vazifani bajarib beradi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun: birinchidan, energetika sanoati mustaqil bo'lishi, ikkinchidan energiya resurslari zaxiralari ega bo'lishi, uchinchidan energetika sanoati zamonaviy boshqaruvga asoslangan bo'lishi, to'rtinchidan soha zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lishi va undan samarali foydalanish darajasi yuqori bo'lishi zarur. Energetika sanoatining mustaqil bo'lishi – iste'molchilarning elektr energiyaga bo'lgan talabi har doim mamlakat ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'minlanishi kerak [5].

Milliy iqtisodiyotning barqaror darajada rivojlanishi, energetika sanoatini va energiya ishlab chiqaruvchi korxonalarning rivojlanishiga bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda "energetika sanoatining barqaror rivojlanishi" tushunchasining aniq ta'rifi yo'q. D.L.Grin o'z asarlarida "energiya barqarorligi kelajak avlodlar uchun energiya xavfsizligiga imkon beradigan energiya manbalariga egalik qilishining kafolati sifatida belgilaydi" [6].

Mamlakat energetika sektorining barqaror rivojlanishi uchun institutsional muhit muhim rol o'ynaydi, u "yoqilg'i-energetika sektori tizimi faoliyat ko'rsatadigan asosiy huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy qoidalar va modellar to'plamini ifodalaydi. Institutsional komponent quyidagilarni ta'minlaydi: normalar va standartlarni ishlab chiqish; me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish; axborot-tahliliy o'zaro ta'sir; iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatlarni muvofiqlashtirish; innovatsion rivojlanish darajasi; iste'mol sektori imkoniyatlari; boshqaruv sifati" [7].

Milliy elektr energiyasi bozorlarini birlashtirishning ikkita asosiy modelini ajratish mumkin. Birinchi model, milliy bozorlarni bosqichma-bosqich birlashtirish orqali yagona bozorni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu yo'l Yevropa Ittifoqi (YeI) mamlakatlarining elektr energiyasi bozorlarining integratsiyalashuviga olib keldi [8].

Armanistonda elektr energiyasi bozorida yagona elektr energiyasi xaridorining modeli shakllantirildi, tariflarni davlat tomonidan tartibga solish saqlab qolindi va sanoat xususiyashtirildi. Qirg'izistonda asosiy energetika kompaniyalari yagona xoldingga birlashtirilgan, raqobatbardosh ulgurji elektr energiyasi bozori yo'q, ikki tomonlama savdo shartnomalar asosida amalga oshiriladi [9].

Buyuk Britaniya 2018-yilda shamol energetikasi sohasini rivojlantirish maqsadida, 17,5 milliard funt sarmoya kiritdi va bu ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keldi. Yirik elektr energiya batareya zavodlari ko'plab mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Shvesiya, Vengriya, Polsha va Germaniyada qurilishi rejalashtirilgan [10].

Dunyo mamlakatlarida energiya resurslarining notekis taqsimlanganli sababli, hozirgi kunda jahonda energiya manbalariga bo'lgan global taqchillik yuzaga kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda tabiiy monopoliyalarning sohalari mamlakatlarning asosiy infratuzilmalarini tashkil etganligi sababli, jumladan, elektr energetika sohasini tartibga solish va boshqarish dolzarb ahamiyatga ega [11].

Sanoatlashish jarayonida global energiyaga talabning oshib borishi sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarisiz barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi. AQSh Energiya departamenti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda energiya iste'moli 2012-yilda 13,8 mlrd. t.n.e.ga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-2040-yillarda o'rtacha yillik 1,4 foizga o'sib, 2040-yilda 20,5 mlrd. t.n.e.ga yetishi prognoz qilinmoqda [12].

Energiya xavfsizligi davlatning uning predmeti yoki mintaqasining energetik mustaqilligi bilan bog'liq, bu birinchi navbatda siyosiy muammodir. Energetika sohasida ishlab chiqaruvchi davlatlarning barqaror rivojlanishi va barqarorligi iqtisodiy energetik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [13].



Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy sohalaridan biri elektr energetikasi sohasi hisoblanadi. Davlatning istiqbolli rivojlanishi har doim uning energiya resurslari va elektr energiyasini ishlab chiqarish salohiyatiga qarab baholanadi <sup>[14]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqbol va imkoniyatlari qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo mintaqamiz, bir tarafdin, energetika resurslariga boy, ammo boshqa tomondan, o'sha energetika resurslari teng taqsimlanmagan yoki ular turli-tuman. Suv-energetika masalalari hal etilmagani nafaqat muvaffaqiyatli integratsiya yo'lida to'siq bo'lib keldi. Ayni chog'da Markaziy Osiyo respublikalari elektr quvvati ishlab chiqarishni rang-baranglashtirish bo'yicha faol choralar ko'rmoqda, jumladan, mamlakatlar tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha o'z dasturlarini rivojlantirmoqda. Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlaridagi elektr energetikasi tizimi juda eskirib ketganini hisobga olsak, sohaga xorijiy sarmoyani jalb etish maqsadga muvofiq. Zero, Markaziy Osiyoning energetika tizimi XX asrning 60–70-yillarida Sovet Ittifoqi davrida yaratilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida elektr energiyasini ishlab chiqarish salohiyati va o'rnatilgan quvvat bo'yicha, birinchi o'rinda Qozog'iston Respublikasi hisoblansa, ikkinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi. Markaziy Osiyo hududida elektr quvvati bozorini tashkil qilish bo'yicha Qozog'iston Respublikasida imkoniyat bir tomonlama yuqori bo'lishi mumkin, ya'ni elektr energiyasini ishlab chiqarish salohiyatining yuqori ekanligi. Lekin bu borada, O'zbekiston Respublikasining imkoniyatlari kengroq hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlarining energetik resurs salohiyati 1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

1-jadval: Markaziy Osiyo davlatlarining energetik resurs salohiyati

| Mamlakatlar    | Yil  | Ko'mir*<br>mlrd.t. | Neft*<br>mln.t. | Gaz*<br>mlrd. m <sup>3</sup> | Uran**<br>ming. T. | Gidro***<br>mlrd. kVt.s/y | QTEM**** mlrd<br>kVt.s/y |
|----------------|------|--------------------|-----------------|------------------------------|--------------------|---------------------------|--------------------------|
| Qozog'iston    | 2000 | 34,1               | 2760            | 1841                         | 601                | 27                        | 66                       |
|                | 2020 | 34,1               | 2760            | 1841                         | 601                | 27                        | 66                       |
| Qirg'iziston   | 2000 | 1,34               | 11,5            | 6,54                         | -                  | 52                        | -                        |
|                | 2020 | 1,27               | 1,2             | 6,2                          | -                  | 99                        | -                        |
| Tojikiston     | 2000 | 0,67               | 5,4             | 9,2                          | -                  | 317                       | 18,4                     |
|                | 2020 | 1,0                | 10              | 10                           | -                  | 317                       | 18,4                     |
| Turkmaniston   | 2000 | -                  | 75              | 2860                         | -                  | 2                         | -                        |
|                | 2020 | -                  | 75              | 2860                         | -                  | 2                         | -                        |
| O'zbekiston    | 2000 | 2                  | 350             | 2000                         | 83,7               | 15                        | -                        |
|                | 2020 | 2                  | 350             | 2000                         | 83,7               | 15                        | -                        |
| Markaziy Osiyo | 2000 | 38,11              | 3261,9          | 6716,7                       | 684,7              | 413                       | 84,4                     |
|                | 2020 | 38,37              | 3205,2          | 6716,2                       | 684,7              | 460                       | 84,4                     |

Izoh: \* ko'mir, neft va tabiiy gaz uchun tasdiqlangan qayta tiklanadigan zaxiralar hajmi berilgan; \*\* 30 doll/kg gacha ishlab chiqarish xarajatlari bilan isbotlangan uran zaxiralarini Jahon Energiya kengashi (JEK) baholagan; \*\*\* gidropotential – iqtisodiy samarali. O'zbekiston -texnik gidropotensial; \*\*\*\* QTEM – Qayta tiklanadigan energiya manbalari.

Manba: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1002/pa.2427#:~:text=Central%20Asian%20countries%20are%20rich,use%20of%20regional%20energy%20resource> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p ko'mir zaxirasi Qozog'istonda – 34,1 mlrd. tonnani tashkil qiladi. Eng ko'p neft zaxirasi ham Qozog'istonda -2760 mln. tonna, ikkinchi o'rinda O'zbekiston – 350 mln. tonnani tashkil qiladi. Gaz zaxirasi bo'yicha birinchi o'rinda Turkmaniston – 2860 mlrd. m<sup>3</sup>ni, ikkinchi o'rinda O'zbekiston – 2000 mlrd. m<sup>3</sup>, uchinchi o'rinda Qozog'iston – 1841 mlrd. m<sup>3</sup> tashkil qiladi. Uran zaxirasi bo'yicha birinchi o'rinda Qozog'iston – 601 ming tonna, ikkinchi o'rinda O'zbekiston – 83,7 ming tonna,





qolgan respublikalarda uran zaxirasi mavjud emas. Suvdan olinadigan elektr energiyasi bo'yicha, ya'ni gidroelektr stansiyalari bo'yicha Tojikiston Respublikasi – 317 mlrd. kVt soat elektr energiya ishlab chiqarish bilan birinchi o'rinda tursa, Qirg'iziston Respublikasi 2020-yilda – 99 mlrd. kVt. soatni elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan ikkinchi o'rinda turadi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha, birinchi o'rinda – Qozog'iston Respublikasida yiliga 66 mlrd. kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Ikkinchi o'rinda – Tojikiston Respublikasida – 18,4 mlrd. kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

O'zbekistonda elektr energiyaga bo'lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Bunga aholi sonining ko'payishi, elektr energiyadan foydalanish vositalarining ortishi hamda sanoat tarmog'ining kengashi, korxona va tashkilotlarning energiyaga bo'lgan talabining keskin oshib borishi va boshqalar sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha 2010–2022-yillar davomida elektr energiya ishlab chiqarish holati 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-jadval: O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha elektr energiyasi ishlab chiqarish holati (mln. kVt.)<sup>[15]</sup>

| Hududlar                        | 2010-yil       | 2015-yil       | 2018-yil       | 2020-yil       | 2021-yil       | 2022-yil       | 2022-yildan<br>2010-yilning farqi |
|---------------------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|-----------------------------------|
| <b>O'zbekiston Respublikasi</b> | <b>51976,3</b> | <b>57658,1</b> | <b>62896,6</b> | <b>66500,7</b> | <b>71364,6</b> | <b>74269,3</b> | <b>22293,0</b>                    |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 3100,2         | 3451,3         | 3855,9         | 4392,4         | 5233,9         | 5373,9         | 2273,7                            |
| Andijon                         | 774,0          | 674,1          | 769,5          | 372,6          | 489,2          | 791,4          | 17,4                              |
| Buxoro                          | 5,7            | 4,9            | 6,5            | 6,2            | 7,4            | 1578,3         | 1572,6                            |
| Jizzax                          | -              | -              | -              | -              | -              | -              | -                                 |
| Qashqadaryo                     | 5837,7         | 6310,9         | 13860,2        | 9770,7         | 13349,7        | 8499,0         | 2661,3                            |
| Navoiy                          | 7376,6         | 8864,0         | 8249,3         | 11776,8        | 11117,5        | 11541,6        | 4165,0                            |
| Namangan                        | 0,2            | 0,1            | -              | 5624,6         | 7083,9         | 6694,0         | 6693,8                            |
| Samarqand                       | 5,8            | 3,7            | 75,2           | 73,5           | 70,0           | 38,8           | 33,0                              |
| Surxondaryo                     | 78,6           | 82,9           | 87,7           | 82,4           | 180,8          | 232,3          | 153,7                             |
| Sirdaryo                        | 15278,3        | 16718,4        | 16189,1        | 15249,1        | 16139,1        | 16991,0        | 1712,7                            |
| Toshkent                        | 17935,7        | 20049,6        | 18991,1        | 18228,0        | 16653,4        | 19570,8        | 1635,1                            |
| Farg'ona                        | 455,2          | 312,8          | 286,2          | 264,4          | 395,8          | 393,7          | -61,5                             |
| Xorazm                          | 752,0          | 648,8          | 136,3          | 209,5          | 162,9          | 651,7          | -100,3                            |
| Toshkent sh.                    | 376,3          | 518,0          | 384,1          | 433,5          | 480,6          | 1912,2         | 1535,9                            |

Yuqoridagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari keltirilgan. Bunda respublika bo'yicha 2010-yilda 51976,3 mln. kVt. Elektr energiyasini ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 22293,0 mln. kVt. oshib, 74269,3 mln. kVt. elektr energiyasi ishlab chiqarishgan. Viloyatlar kesimida e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xorazm viloyatida 2010-yilda 752,0 mln. kVt elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilda 100,3 mln. kVt ga kamayib, 651,7 mln.kVt elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Qolgan viloyatlarda elektr energiyasini ishlab chiqarish 2010-yilga nisbatan 2022-yilda oshib borganini ko'rishimiz mumkin. Elektr energiyasini ishlab chiqarish Namangan viloyatida 2010-yilga nisbatan 2022-yilda keskin oshgan, buning sababi, viloyatda "Turaqo'rg'on" IES qurib ishga tushirilgani bilan izohlash mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida 1990-yillar va 2000-yillar boshida, izolyatsiyalangan energetika siyosati ko'zatilda. 2000-yillar boshiga kelib, aniqroq aytsak, 2003-yilda Turkmaniston tabiiy gaz zaxiralari ko'p bo'lgani sababli Markaziy Osiyoning yagona elektr energetikasi tizimidan chiqishga qaror qildi. Mamlakat o'z elektr energetikasi sektorini rivojlantira va bir qancha issiqlik elektr stansiyalar qura boshladi. 2009-yilda O'zbekiston ham o'sha tizimdan chiqqanday bo'ldi, ammo aslida elektr quvvati uzatish liniyalari ham, infratuzilma ham saqlanib qoldi. O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston uch tomonlama formatda ishni davom ettirdi, ya'ni mamlakatlar o'rtasida elektr quvvatini eksport va import qilish saqlanib qoldi. Bo'lib ham, hajmlar keskin o'zgarib, goh ko'tarilib, goh pastlab turdi. Hozirgi kunda davlatimiz rahbarining ochiq va pragmatik siyosati tufayli ushbu aloqalar tiklanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyat darajasini qanday holatda ekanligi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: O'zbekiston Respublikasi elektr stansiyalariga o'rnatilgan quvvat (Mvt) <sup>[15]</sup>

| Elektr stansiyasining turi                                       | 2010-yil | 2012-yil | 2014-yil | 2016-yil | 2018-yil | 2020-yil | 2022-yil |
|------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| O'zbekiston Respublikasi                                         | 12555,4  | 12580,9  | 13036,0  | 14102,1  | 14191,4  | 16643,0  | 17658,9  |
| Issiqlik stansiyalari (IS) va issiqlik elektr stansiyalari (IES) | 10762,5  | 10758,7  | 11165,0  | 12221,7  | 12276,5  | 14620,4  | 15232,3  |
| Gidroelektrstansiyasi                                            | 1792,9   | 1822,2   | 1871,0   | 1880,4   | 1914,9   | 2020,6   | 2225,2   |

Yuqorida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi elektr stansiyalariga o'rnatilgan quvvatlar bo'yicha natijalar ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2010-yilda 12555,4 Mvt tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 17658,9 Mvt ni tashkil qilmoqda. Shundan, issiqlik stansiyalari (IS) va issiqlik elektr stansiyalari (IES) bo'yicha 2010-yilda 10762,5 Mvt tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 17658,9 Mvt tashkil qilmoqda. Hidroelektrstansiyasi bo'yicha 2010-yilda 1792,9 Mvt tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 2225,2 Mvt tashkil qilmoqda.

Mamlakatimizda 2022-yilda nima uchun elektr quvvati yetkazib berishda uzilishlar bo'ldi? Darvoqe, asosiy muammo texnik sabablarga ko'ra kelib chiqqan. Bu yerdagi asosiy muammo tizimning eskirib ketgani bilan bog'liq, u 1960–1970-yillardan beri ishlatilib kelyapti. So'nggi o'n yilliklar mobaynida ushbu tizimni va elektr quvvati uzatish liniyalarini modernizatsiya qilish uchun sarmoya ajratilmadi. Shu sabab tizim eskirib ketgan, samarasi kam, yo'qotishlar ko'p, tizim elektr quvvati oqimining ko'payib yoki ozayib ketishiga, tabiat va favqulodda hodisalarga dosh bera olmaydi. Shuning uchun mintaqamizning har bir mamlakatida ilk yomg'ir va qor yog'ishi bilan elektr quvvatini ham ichki, ham tashqi bozorga yetkazib berishda muammolar yuzaga kela boshlaydi. Shuning uchun bitta sababni qidirish xato bo'ladi, chunki bir-biriga bog'lanib ketgan xatolar turkumi bor. O'sha turkum nimadan iborat? Bular eskirib qolgan elektr energetikasi tizimi, elektr quvvati oqimlari O'zbekistondan qo'shni Qirg'iziston va Qozog'istonga, shuningdek, Qirg'iziston va Tojikistondan O'zbekistonga samarali va oqilona tarzda muvofiqlashtirilmayotgani, butun boshli tizim moliyalashtirilmayotgani va modernizatsiya qilinmayotgani bilan bog'liq.

## XULOSA

Bugun muammodan chiqish yo'li sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalariga ham murojaat qilin-yapti. Bilamizki, global pandemiya, iqtisodiy o'sish sur'atlari qisqarishi rivojlangan mamlakatlarning boshqa energiya manbalariga o'tish borasidagi rejalariga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Aftidan, 2050-yilga borib, qayta-qayta ta'kidlanganidek, elektr quvvati ishlab chiqarishda ugleroddan foydalanmaslikka erishish rejasi juda ko'p mamlakatlarda qayta ko'rib chiqilishi haqida gapirilmogda. Butun dunyo barqarorroq energetika tizimiga va tozaroq "yashil" iqtisodiyotga o'tmogda. Biz ham o'sha jarayonga qo'shilishimizga to'g'ri keladi. Afsuski yoki baxtimizga, tiklanadigan energiya manbalari deb tasniflanmaydigan energiya resurslariga boymiz. Qazib olinadigan yonilg'imiz yoki yoqilg'imiz juda ko'p, yana gidroenergetikamiz bor. Darvoqe, Markaziy Osiyo sharoitida gidroenergetika alohida qism, energiya resurslarini alohida turi sifatida ajratib ko'rsatiladi. U hamisha ham tiklanadigan energiya manbalarining bir qismi bo'la olmaydi. Birinchidan, mintaqamizda gidroenergetika potensiali juda katta va biz uni uzoq vaqtdan beri rivojlantirib kelyapmiz. Shu sabab tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga o'tish strategiyadir, aniq maqsadlar bor, natija bor. O'zbekiston 2030-yilga borib, energetika tizimida tiklanuvchi energiya manbalarini ulushini 30 foizga yetazmogchi. Qozog'iston 2050-yilga borib, elektr quvvati iste'molining 50 foizini TEM hisobiga qoplamoqchi. Hozir texnologiyalar o'zgarib bormogda, yangilanmogda, innovatsiyalar shunchalik tez hayotga tatbiq etilmogdaki, bir narsani bashorat qilish juda mushkul. Ammo O'zbekiston bundan buyon ham shu yo'ldan og'ishmay ketadigan bo'lsa, oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi tayin. Zero, O'zbekistonda tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va mamlakatning energetika tizimini mustahkamlash bo'yicha konsepsiya qabul qilingan. Mamlakatimizda quyosh nuridan va shamoldan elektr quvvati olish bo'yicha ko'plab elektr stansiyalari qurishga oid katta maqsadlar bor. Xitoy, Yevropa, ayniqsa, Fors ko'rfazi mamlakatlari: Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni bilan memorandumlar va bitimlar imzolangan va amalga oshirilyapti. O'zbekiston imzolangan bir qator shartnomalarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga, jumladan, energetika sohasiga milliardlab dollarlik investitsiyalar kiritilishi nazarda tutilgan.

Mintaqa baribir barqaror energetikaga o'tadi. Lekin bu o'tish har bir mamlakatda turlicha bo'ladi. Ammo ijobiy jihat shundaki, juda ko'p innovatsiyalar joriy etilmogda. 2018-yilga kelib, insoniyatning butun tarixi davomida birinchi marta quyosh energetikasi tannarxi gaz, neft va hatto ko'mir yoqib, issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr quvvati tannarxidan arzonroq bo'ldi. Hozirgi kunda mamlakatlar yangi elektr stansi-



yalarini qurmoqchi bo'lsa, an'anaviy issiqlik elektr stansiyalaridan ko'ra TEM – quyosh va shamol elektr stansiyalariga sarmoya kiritish ancha foydali bo'ladi. Yil o'tgan sayin TEM tannarxi arzonlashib boraveradi, yana ishlab chiqariladigan elektr quvvati atrof-muhitni ifloslantirmaydi. Elektr quvvati tannarxi, hatto Markaziy Osiyo sharoitini hisobga olgan taqdirda ham, tobora arzonlashib bormoqda.

Qolaversa, O'zbekiston Atom elektr stansiyalari qurilishini ham rejalashtirgan. Bosh maqsad elektr quvvati ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishdir, chunki barcha mamlakatlarda u yoki bu sababga ko'ra muayyan paytlarda elektr quvvati ancha-muncha yetishmay qolayotganini his qilyapmiz. Aholi soni ortib bormoqda, iqtisodiyotlar nisbatan rivojlanmoqda, bu o'z-o'zidan elektr quvvati iste'moli tez ortayotganiga sabab bo'lmoqda. Atom elektr stansiyalari juda istiqbolli va jozibali muqobil hisoblanadi. Birinchidan, AES Markaziy Osiyo mamlakatlari ishlatilayotgan issiqlik elektr stansiyalariga nisbatan ancha toza. Odatda ular mavjud elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatini jiddiy tarzda oshiradi. O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurilishi mo'ljallanmoqda, u mavjud elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatini 20 – 25 foiz oshiradi. Bu O'zbekistonda joriy etilishi taxmin qilinayotgan AESning belgilangan quvvati 2,5 gigavatt bo'ladi. AES zaruratining yana bir boisi, Markaziy Osiyo-ning barcha mamlakatlarida elektr energetikasi tizimi juda eskirib ketgan. Masalan, O'zbekistonda elektr energetikasi tizimining 75 foizi eskirgan, barcha elektr uzatish liniyalari 40-yil yoki undan ham oldinroq qurilgan. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda ham tizim shunday eski. Ya'ni, atom elektr energiyasini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yasizmi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, yo'qotishlar ko'p bo'ladi va bu asosiy maqsadga erishishga xalaqit beradi.

Rang-baranglashtirish har qanday energetika tizimini rivojlantirishning asosiy jihatlaridan biridir. Mabodo qaysidir mamlakatdan elektr quvvati, gaz yoki neft import qilayotgan bo'lsangiz, muqobil ta'minotchilarni topishni ham o'yabqo'yish kerak. Ularnitashishning bir nechta kanali bo'lish lozim. Mamlakatichida agar qandaydir aniq energetika resursiga qattiq qaramlik bo'lsa, uni rang-baranglashtirishga harakat qilish zarur. O'zbekistonda elektr quvvatining 85 foizi gaz yoqiladigan issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Qozog'istonda elektr quvvatining 70 foizi ko'mir yoqib ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalaridan olinadi. Tabiiyki, qazib olinadigan yonilg'i yoki yoqilg'iga qaramlik darajasi juda baland. Buni rang-baranglashtirish shart. Qolaversa, mintaqadagi imkoniyatlar bilan integratsiyalashuv samara beradi.

Nazarimizda, integratsiya siyosat, iqtisodiyot, xavfsizlik, infratuzilma, logistika – barcha sohalarida o'zaro bog'liqlikning yuksakroq darajasi bo'lishini taqozo qiladi. Biz bir-birimizga bog'liqmiz. Shuning uchun muam-molarni birga hal etishimiz shart. Qo'shni mamlakatlar bo'lganimiz uchun iqtisodiyot sohasida o'zaro hamkorlik qilamiz, infratuzilma masalasida mintaq darajasidagi energetika, transport va logistika infratuzilmalari, shuningdek, gidroenergetika sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. O'zbekiston Tojikiston bilan Zarafshon daryosida GES qurish loyihasini birgalikda ishlab chiqmoqda, Qirg'izistonda Qambarota GES-1 loyihasini amalga oshirish masalasini faol yondashmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi energetika xavfsizligi darajasi uzliksiz hamkorlikka bog'liq. Shu bilan birga, hozirgi kunda yuritilayotgan siyosat energetika tizimida qandaydir uzoq muddatli inqirozli vaziyatlarning oldini olishga yordam bermoqda. Hukumatlar infratuzilmani imkon qadar modernizatsiya qilish, yangilashga intilmoqda. Keng qamrovli modernizatsiya, tabiiyki, ulkan mablag' talab etadi, Markaziy Osiyo mamlakatlari buning uchun xorijdan sheriklar jalb etyapti. Ayni vaqtda mintaqada mamlakatimizda tiklanadigan energetika manbalariga o'tilayotgani, gidroenergetikani rivojlantirish istiqbollari va unga qiziqish, yangi neftni qayta ishlash inshootlari, yangi issiqlik elektr stansiyalari qurilayotgani muayyan umid uyg'otadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5646-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4188798>.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi "Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-220-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6189000>.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PQ-4249-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4257083>.
4. Любимова, Н. Г. Экономика и управление в энергетике: учебник для магистров / Н.Г. Любимова, Е.С. Петровский. – М.: Издательство "Юрайт", 2017. – 485 с.: ISBN 978-5-9916-3319-2.
5. Saidov M.S. Elektr energetika tarmog'ini tartibga solish va boshqarishning iqtisodiy xususiyatlari // Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/950/863>.
6. Greene, D. L. Measuring Energy Sustainability. Chapter 20 in Linkages of Sustainability/ eds. T.E. Graedel and E. van der Voet // The MIT Press, Cambridge, MA. – 2009. – P. 354-373.
7. Кондраков О.В. Повышение энергетической безопасности на основе экономически устойчивого развития топливно-энергетического комплекса: автореферат дис. доктора экономических наук: 08.00.05 / Кондраков Олег Викторович; [Место защиты: Юго-Западный государственный университет]. – Курск, 2020. – 47 с.



8. А.В. Филиппова Использование опыта международной интеграции в мировой электроэнергетике в евразийском экономическом союзе: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.14 / Филиппова Алина Валерьевна. – М., 2018. – 207 с.
9. Е.А.Трегубова, Б.И. Файн Вопросы формирования общего электроэнергетического рынка государств ЕАЭС. / Социально-экономические и правовые системы стран евразийской экономической интеграции: материалы Междунар. науч.-практ. конф. (Россия, Омск, 1 марта 2019 г.) / НОУ ВПО "СИБИТ" [и др.]/ Омск: Изд-во ОмГТУ, 2019.
10. У. Камалетдинов Пути развития механизмов ГЧП в энергетическом секторе Узбекистана. Журнал "Бозор, пул ва кредит", № 1, 2019 г.
11. Саидов М.С. Электр энергетикаси соҳасининг бошқарув самарадорлигини ошириш масалалари // Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 3-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1129/1016>
12. Ш.Зокиров Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш борасидаги хориж тажрибаси. Иқтисодиёт ва таълим №4. 2017. –Б. 7-12.
13. Е.Дубровин, И.Дубровин Энергетическая безопасность как важная составляющая национальной безопасности. URL: <http://www.eprussia.ru/epr/170/12776.htm> (дата обращения: 11.01.2016).
14. Саидов М.С. Электр энергетика тармоғини бошқаришдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2023, yanvar-fevral (№ 00063). DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss1/a19](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a19).
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi statistikasi.
16. Saidov M.S. O'zbekistonda tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarish va tartibga solishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –№ 3, may-iyun, 2021-yil.
17. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11\\_Saidov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf)
18. Saidov M.S. Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlari // Iqtisodiyot va ta'lim / 2021-yil 2-son.
19. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>.
20. Saidov M.S. Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishda raqobat muhitini rivojlantirish // Iqtisodiyot va ta'lim / 2021-yil 4-son.
21. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>.
22. Saidov M.S. Tabiiy monopolialarni boshqarish va tartibga solishning xorij tajribasi // Iqtisodiyot va ta'lim / 2021-yil, 5-son.
23. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.